Maxkamova Durdona Komiljon qizi

ADCHTI magistratura talabasi

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA LANDSHAFT SOHASIGA OID TERMINLAR RIVOJLANISHINING LINGVISTIK TAMOYILLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda landshaft sohasiga oid terminlarning shakllanishi va rivojlanishining lingvistik tamoyillari tahlil qilinadi. Landshaft terminologiyasining paydo bo‘lishi, uning ilmiy muhitda qo‘llanilishi hamda terminlarning semantik aniqligi, tizimliligi va standartlashuvi masalalari yoritiladi. Shuningdek, geografiya, ekologiya va landshaftshunoslik kabi fanlar bilan o‘zaro aloqada shakllangan terminlarning til tizimidagi o‘rni va ularning lingvistik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tavsiflanadi. Tadqiqotda landshaft sohasiga oid terminlarning boyish jarayoni, ularning xalqaro terminologiya bilan uyg‘unlashuvi hamda zamonaviy ilmiy kommunikatsiyadagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: landshaft terminologiyasi, termin, terminologiya, terminosistema, landshaftshunoslik, geografik terminlar, lingvistik tamoyillar, ilmiy terminlar, terminlarning rivojlanishi, zamonaviy tilshunoslik.

Landshaft terminlarini o‘rganishda ularni muayyan guruhlarga ajratib tasniflash landshaft atamalarining leksik-semantik, struktur-semantik va funksional-semantik xususiyatlarini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi hamda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunday tasnif orqali terminlarning shakl va mazmun jihatidan o‘zaro bog‘liqligi, sinonimik va antonimik qatorlari, umumiy va xususiy ma’nodagi birliklari aniq ko‘rinadi.

Bundan tashqari, zamonaviy landshaftshunoslikka oid terminologiyani o‘rganishda terminlarning ko‘p qatlamli va murakkab tuzilishga ega ekaniga alohida e’tibor qaratgan holda ularni qayd etib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki bugungi landshaft terminlari tarkibida bir komponentli (yakka so‘zli), ikki komponentli hamda bir necha so‘zdan iborat barqaror so‘z birikmasi shaklidagi murakkab terminlar uchraydi. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda ilmiy jamoatchilik vakillari o‘rtasida bir qator qarama-qarshi fikrlar ham yuzaga kelmoqda: ba’zi tadqiqotchilar termin faqat bir so‘zli yoki ikki komponentdan iborat bo‘lishi lozim, deb hisoblasalar, boshqa bir guruh olimlar landshaft terminlarini nisbatan uzunroq, struktur jihatdan murakkabroq so‘z birikmalari ham bo‘lishi mumkin, deb izohlaydilar. Ana shu turdagi ilmiy munozaralar landshaft terminologiyasi nazariy asoslarini yanada chuqurroq ishlab chiqishni taqozo etadi.

Landshaft terminlarini tarkibiy murakkablik darajasiga ko‘ra qiyosiy tadqiq etish terminologiya sohasida ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki bunday tahlil natijasida landshaft terminlarining qanday modellarga (yakka so‘zli, ikki komponentli, ko‘p komponentli birliklar) asoslanishi, ularning semantik tuzilishi va funksional yuklamasi aniq ko‘rinadi. Lug‘atshunos olimlar uchun esa bunday tadqiqotlar landshaftshunoslikka oid terminlarni to‘g‘ri tarjima qilish, sohaga xos ikki va ko‘p tilli terminologik lug‘atlar yaratish jarayonida asosiy tayanch vosita hamda ko‘zlangan maqsad sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuv natijasida struktur jihatdan murakkab bo‘lgan landshaft terminlari ham terminologik tizimdan o‘z o‘rnini egallaydi, lug‘at tarkibi boyiydi va ilmiy uslubning ifoda imkoniyatlari

kengayadi. Natijada, landshaftshunoslikka oid murakkab tushunchalarni ham terminlar vositasida aniq, to‘liq va so‘zsiz ifodalash imkoniyati yuzaga keladi[1].

Terminni tarjima qilish masalasi, avvalo, uning ma’nosini eng aniq va to‘g‘ri ifodalashni taqozo etadi. Landshaft terminlarining tarjimasiga doir muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, mavjud terminologik tizimlarni tillararo qiyoslash, shuningdek, ushbu tizimda namoyon bo‘ladigan leksik-semantik, struktur-semantik va o‘ziga xos lingvistik munosabatlarni o‘rganish chuqur va puxta tahlilga asoslangan bo‘lishi shart. Xususan, terminlarni tarjima qilishga doir nazariy muammolar G. Terrining “Fransuz va nemis tillaridagi yuridik terminlarning tarjimadagi ilmiy-nazariy muammolari” nomli doktorlik ishida atroflicha yoritilgan bo‘lib, unda yuridik terminlar fransuz va nemis tillari misolida qiyosiy tahlil etilgan. Mazkur tadqiqot boshqa sohalar qatori landshaftshunoslik terminlarini tarjima qilishda ham metodologik namuna sifatida ahamiyatga ega bo‘lib, turli tillardagi landshaft terminlarining ekvivalentlarini aniqlash va ularni ilmiy muomalaga to‘g‘ri kiritish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz tilining moliya, geologiya, soliq-bojxona, iqtisodiyot, geografiya, landshaftshunoslik, ekologiya, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalariga oid terminologik tizimlarini struktur jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, terminologiyada bir so‘zdan iborat terminlar ham, murakkab yasama terminlar ham o‘zaro paradigmatik va sintagmatik munosabatlar asosida bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi. Aynan shu munosabatlar natijasida termin yasovchi so‘z birikmalari va tayyor terminlar o‘rtasida kontseptual, ya’ni mazmuniy, hamda derivatsion, ya’ni yasama aloqalar shakllanadi. Ushbu jihatdan geologiya va landshaftshunoslik sohalariga oid terminologiya ham istisno emasligini alohida ta’kidlash lozim.

Terminning ilmiy ta’riflariga batafsil to‘xtalar ekanmiz, vaqt o‘tishi bilan hamda turli olimlar tomonidan bildirilgan qarashlar ta’sirida “termin” tushunchasining talqini ma’lum darajada o‘zgarib borganini kuzatishimiz mumkin. Shunga qaramay, D.S. Lotte tomonidan ilgari surilgan qarashlarning aksariyati hozirgacha lingvistik qoida sifatida umumiy qabul qilingan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan. U terminoelementni terminologik ma’noga ega bo‘lgan va termin shakllanishida ishtirok etadigan minimal birlik sifatida izohlaydi hamda terminni milliy terminologiya tizimining a’zosi sifatida ko‘radi. Olimning fikricha, tabiiy shakllangan har qanday terminologik tizimda muayyan kamchilik va nuqsonlarning mavjud bo‘lishi tabiiy hol bo‘lib, bu istisno sifatida qaralmasligi kerak.

Lotte terminlar “absolyut” va “nisbiy” ma’no anglatishi bilan farqlanishini ta’kidlaydi, terminlar ifodalaydigan tushunchalarni umumiy va xususiy guruhlarga ajratish orqali har bir sohada o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lgan terminlar qatlamini shakllantirish mumkinligini qayd etadi. Uning nazarida, tartibga solingan va me’yorlashtirilgan terminlarga nisbatan sohaga tatbiqi bo‘yicha maxsus tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur, shunda mutaxassislar yangi terminlarni tezroq o‘zlashtirishi, ularni keng va faol qo‘llashga moslashishi osonlashadi. Shuningdek, u terminlar shakllanishiga asos bo‘ladigan terminologik “tugunlar”ning to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishiga alohida e’tibor qaratadi, chunki har qanday soha terminologiyasining ichki strukturasi ularning tarkibiy tuzilishiga bevosita bog‘liqdir. Lotte talqiniga ko‘ra, yasama termin soha doirasida sinonimga ega bo‘lmagan va omonimlik keltirib chiqarmaydigan ob’ekt yoki tushunchani aniq, to‘g‘ri va bir

[1] Саидов Халимджан Азизович. Дипломатическая терминология и ее особенности в разносистемных языках // Вестник ТГАТПБП, 2012. № 3. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/diplomaticheskaya-terminologiya-i-ee-osobennosti-v-raznosistemnyh-yazykah

(дата обращения: 19.09.2025).

ma’noli ifodalashi kerak; mavjud yoki yangidan yaratilayotgan har bir termin leksik-semantik yoki tarkibiy jihatdan muayyan assotsiativ qatlamga mansub bo‘lishi lozim.

D.S. Lotte ilgari surgan ana shunday nazariy talab va mezonlar bugungi kunda ham, xususan, geologiya va landshaftshunoslik terminlarini yaratish, tartibga solish, me’yorlashtirish va ularni tarjima qilish jarayonida ishonchli nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Ilmiy va sohaviy matnlar hamda diskurslar chegarasida yuzaga keladigan terminologik masalalar terminologiyani chuqur o‘rganish uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Lingvistik hodisa sifatida termin tushunchasi va uning tadrijiy rivojlanish tarixi yillar davomida turli terminolog olimlar tomonidan muayyan nazariy yondashuvlar asosida izchil o‘rganib kelinmoqda. Shunga qaramay, termin va so‘z munosabati, ularning chegaralanishi, tizimdagi o‘rni kabi qator masalalar hanuzgacha to‘la hal etilgan, yakdil yechim topgan deb bo‘lmaydi. Shu bois termin va terminologiya muammosiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar turli sohalar miqyosida davom etmoqda, natijada sohaga oid ilmiy-nazariy qarashlar yanada boyib, yangilanib bormoqda.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad landshaft terminologiyasining lingvistik mohiyatini aniqlash, uni zamonaviy va yangi lingvistik nazariyalar nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish hamda modernizatsiya qilishdan iboratdir. Shu ma’noda, termin va terminologiyani yangilash, me’yorlashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va masalalarga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Zamonaviy tilshunoslikda terminni o‘rganishda ikki asosiy ilmiy yondashuv – normativ va deskriptiv (tavsiflovchi) yondashuv ajratib ko‘rsatiladi. Normativ yondashuvga ko‘ra, termin o‘ziga xos semantik tuzilishga ega bo‘lgan, aniq ma’no ifodalovchi leksik birlik sifatida qaraladi; aynan shu belgi soha terminini umumadabiy so‘zlardan ajratib turadi. D.S. Lotte, A.A. Reformatskiy, T.L. Kandelaki, R. Kiyak kabi normativ yondashuv tarafdorlari termin bitta tushunchani ifodalashi, tizimlashtirilgan bo‘lishi, lo‘nda va ixcham shaklda ifodalanishi, aniq ma’noga ega bo‘lishi va sinonimlarga tayanmasligi kerakligini ta’kidlab, maxsus me’yoriy talablar ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida “sof termin” semantik jihatdan o‘zgarmas, muayyan soha tili uchun mo‘ljallab fiksatsiya qilingan statik birlik sifatida talqin etiladi, real nutqdagi dinamik hodisa sifatida emas. Zamonaviy tilshunoslikka oid manbalarda ana shunday tipdagi birliklar “ideal termin” atamasi bilan ifodalanadi.

G.O. Vinokur, B.N. Golovin, R.Yu. Kobrin, V.P. Danilenko kabi deskriptiv yondashuv tarafdorlari soha terminlarini ularning semantik funksiyasiga ko‘ra tadqiq etishda terminni fiksatsiya sohasi doirasidagi statik element sifatida emas, balki real qo‘llanish jarayonida namoyon bo‘ladigan birlik sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, terminning o‘ziga xosligi, avvalo, uning “maxsus aniq so‘z” bo‘lishida emas, balki ma’lum bir nutqiy vaziyatda maxsus vazifani bajaradigan til birligi sifatida maydonga chiqishida namoyon bo‘ladi. Terminologiyaga oid bo‘lmagan umumiy sohada qo‘llaniladigan so‘z bilan termin o‘rtasidagi farq ham faqat soha doirasida emas, balki ularning qo‘llanishidagi semantik-funksional xususiyatlarga tayanilgan holda aniqlanadi.

Bundan tashqari, termin til birligi sifatida muayyan til tizimiga mansub bo‘ladi, shu tilning ichki qonuniyatlariga bo‘ysunadi va ayrim hollarda lingvistik hamda ekstralingvistik omillar ta’sirida ma’lum darajada o‘zgarishi mumkin. Shu ma’noda ayrim terminlar polisemantik tus olishi, muayyan tushunchani ifodalashda sinonimik va antonimik birikmalar bilan murakkab semantik munosabatga kirishishi kuzatiladi. Zamonaviy ilmiy izlanishlar deskriptiv yondashuv tarafdorlarining ana shu qarashlarini ma’lum darajada tasdiqlamoqda. Lingvistik, kasbiy-kommunikativ va filologik yondashuvlarni o‘z ichiga olgan “termin” tushunchasining yagona, hamma uchun umumiy bo‘lgan ishchi ta’rifi va uni to‘liq qamrab oluvchi tavsifiy modeli

hanuzgacha shakllanmagani esa tilshunoslikda yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish va zamonaviy fan taraqqiyotini jadallashtirishga kuchli turtki bermoqda.

V.M. Leychik tomonidan ilgari surilgan “til substrati” haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar keyinchalik Yu.N. Marchuk va L.Yu. Buyanov tadqiqotlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan[2]. Uning talqiniga ko‘ra, “lingvistik substrat” tushunchasi to‘rt qatlamli murakkab tarkibdan iborat: birinchidan, mantiqiy substrat – ma’no anglatuvchi belgi va xususiyatlar majmui; ikkinchidan, tabiiy til substrati – termin tarkibining oddiy (tovushiy yoki grafik) shakli hamda shu tuzilmaning muayyan tilning leksik tizimiga mansubligini ko‘rsatuvchi ideal, ya’ni semantik komponent; uchinchidan, terminning umumiy ma’nosi – tushunchalar tizimidagi mavhum yoki aniq tushunchani ifodalashi; to‘rtinchidan, terminologik mohiyat – terminning inson bilimi yoki faoliyatining muayyan sohasini tavsiflovchi nazariya elementi sifatida bajaradigan mazmuniy va funksional vazifalari.

Shu bois terminni o‘rganishga bunday yondashuv natijasida termin tushunchasining lingvistik va terminologik mohiyati o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikni ko‘rish, terminologiyani esa adabiy til lug‘atining ajralmas qismi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har qanday tilning lug‘at tarkibi bir qator kichik quyi tizimlardan tashkil topgan keng qamrovli tizim sifatida qaralganda, umumadabiy til va terminologiya quyidagi umumiy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi: grammatik kategoriyalarning mavjudligi va ularning obyekt nomlari bilan uzviy aloqadorligi, nomlar (nomenlar)ning guruhlar, predmetlar va alohida obyekt hamda hodisalarni to‘g‘ri ifodalashga xizmat qilishi. Terminlar umumiy adabiy leksikada bo‘lgani kabi aniqlikka va, asosan, monosemantik xususiyatga intiladi, shu bilan birga ma’lum darajada cheklangan polisemiya, omonimiya va sinonimiya kabi lingvistik hodisalarning mavjudligi ham ular uchun xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 1999.
2. L’Homme M. C. Lexical Semantics for Terminology: An Introduction. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2004.
3. Ne’matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. –Buxoro: Universitet, 2005.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2013.
5. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1990.
6. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam: John Benjamins, 2000.
7. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал
8. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
9. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. — Москва: КомКнига, 2000. — 254 с.

[2] Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. — Москва: КомКнига, 2000. — 254 с.